



REFLEKTIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH UCHUN PEDAGOGIK MODELLAR

Jonibekova Mehriniso Umarbek qizi

*Teacher, English language faculty 2,
Uzbekistan State world language university*

Annotatsiya. Ushbu maqolada refleksiv qobiliyatlar, talabalarda refleksiv qobiliyatlarni rivojlantirish uchun pedagogik modellar tasniflari, talabalarning o'z tajribasini tahlil qilish, xatolar va muvaffaqiyatlardan saboq olish, shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi modellar tahlil qilinadi. Maqolada pedagogik modellar nima uchun kerakligi va bo'lajak o'qituvchilar uchun ushbu modellarning ahamiyati nimadan iborat ekanligi tahlil qilinadi. Refleksiv qobiliyatlarni rivojlantiruvchi modellar o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, mustaqil o'rganishni rag'batlantirish, kasbiy kompetensiyalarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: pedagogik model, refleksiya tsikli, harakatdagi refleksiya, kritik refleksiya modeli, konstruktiv fikr, faol eksperiment.

Refleksiv ta'lim o'quvchilar va yoshlarning o'z tajribasini tahlil qilish, xatolar va muvaffaqiyatlardan saboq olish, shaxsiy va kasbiy rivojlanish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqish qobiliyatidir. Refleksiv ta'limda o'rganuvchilar o'z tajribalarini tahlil qiladilar o'quvchilarda tanqidiy fikrlashni rivojlantiriladi. Bundan tashqari, refleksiv ta'lim mustaqil o'rganishni rag'batlantiradi va kasbiy kompetensiyalarni takomillashtiradi. Birinchi refleksiv pedagogik model Graham Gibbs tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, Refleksiya Tsikli deb nomlanadi va bu model tajribalarni tizimli tahlil qilish, shaxsiy va kasbiy rivojlanishni rag'batlantirish uchun qo'llaniladigan keng tarqalgan modeldir. Ushbu model 6 ta bosqichdan iborat bo'lib, har bir qadamda refleksiv fikrlashni chuqurlashtirishga yordam beradi. Birinchi bosqich Tavsif modeli hisoblanib, bu modelning maqsadi hodisani xolis va aniq tasvirlashdan iborat. Masalan, darsda Critical Thinking mavzusini o'rgatayotganda, talabalar guruh muhokamasida qatnashishdan qochishdi. Dars rejasiga ko'ra ular 5 daqiqalik munozaraga tayyorlanishi kerak edi, lekin faqat 2 nafari javob berdi. Keying model His tuyg'ular deb nomlanib, bu modelning maqsadi voqea paytidagi va keying emotsional reaksiyalarni tushunishdan iborat. Masalan, darsdan keyin o'zimni ishonchsiz his qildim, chunki talabalar mavzuga qiziqish bildirmadi. Shuningdek, ularning tushunmovchiligi uchun o'zimni aybdor his qildim. Uchinchi model Baholash deb nomlanadi va bundan maqsad tajribaning ijobiy va salbiy jihatlarini ajratishdan iborat. Bu modelning yaxshi tomoni dars rejasi aniq edi, misollar tayyorlangan edi. Salbiy tomoni esa talabalar ishtirok etish uchun motivatsiyasi past edi, vaqtni boshqarish muvaffaqiyatsiz bo'ldi. Navbatdagi to'rtinchi bosqich esa tahlil deb nomlanadi, bu modelning maqsadi sabab oqibat



munosabatlarini chuqur o'rganishdan iborat. Masalan, talabalar sustlik qilishining sababi: mavzu qiyin bo'lishi, dars oldidan uy vazifasi yetarli tushuntirilmagan, yoki munozara uchun xavfsiz muhit yo'qligi bo'lishi mumkin. Beshinchi bosqich Xulosa deb nomlanib, bu model kelajakdagi harakatlar uchun asosiy fikrlarni umumlashtirishga xizmat qiladi. Masalan, darsda interfaol usullarni ko'proq qo'llash kerak. Talabalarga mavzu oldidan tayyorlanish uchun qo'shimcha materiallar berish foydali bo'lardi. Gibbs modelining so'nggi bosqichi Harakat rejasi deb nomlanib, bundan maqsad o'zgarishlar uchun aniq chora tadbirlar ishlab chiqishdan iborat. Masalan, keying dars uchun yangi o'yinlar o'tkazishni rejalashtirish, mavzuni real hayotdan olingan misollar bilan bog'lashni rejalashtirish, har bir talabaga javob berishi uchun individual vaxt ajratishni rejalashtirishdan iborat.[Gibbs,35] Pedagogik reflektiv modellarning yana biri Schönning Reflektiv Amaliyot Modeli hisoblanadi. Reflektiv amaliyot modeli ikki bosqichdan iborat: harakatdagi refleksiya va harakatdan keying refleksiya.

Harakatdagi refleksiya bu jarayon davomida, ya'ni amaliyot paytida sodir bo'layotgan vaziyatga nisbatan darhol refleksiya qilish va reaksiya ko'rsatishdir. Ushbu modelning xususiyatlari real vaqt reaksiyasi ya'ni vaziyat yuzaga kelgan paytda tez fikrlash va moslashish; **intuitsiya va tajribaga asoslangan** ya'ni mutaxassisning ilgari bilimlari va ko'nikmalariga tayanadi. Bunga qo'shimcha tarzda **tajribaviy o'rganish** ya'ni sinab ko'rish" usuli orqali yechim toppish xususiyatlaridan iboratdir. Agar darsda talabalar mavzuni tushunmasa, o'qituvchi dars usulini darhol o'zgartirishi (masalan, misollar bilan tushuntirish yoki interfaol mashqlarga o'tish).

Schön Modelining afzalliklari va kamchiliklari: amaliyotga moslashuvchanlik, tajribaviy o'rganishni rag'batlantiradi, kasbiy rivojlanishga yordam berish afzalliklariga ega. Ushbu modelning kamchiliklari esa ba'zan refleksiya uchun vaqt yetarli bo'lmaydi, harakatdagi refleksiya uchun katta tajriba talab qilinadi, sub'ektiv baholarga moyillik hisoblanadi. [Schön, 24] Navbatdagi reflektiv pedagogik model David Kolb tomonidan ishlab chiqilgan Tajribaviy o'rganish tsikli insonlar tajriba orqali qanday o'rganishini tushuntiruvchi asosiy pedagogik modeldir. Ushbu model 4 bosqichdan iborat bo'lib, har bir bosqich o'rganish jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Birinchi bosqich Konkret tajriba hisoblanadi va yangi amaliy tajriba yoki vaziyatga duch kelish maqsadini ifodalaydi. Masalan, talabaning darsda yangi grammatik qoidani o'rganishi, o'qituvchining sinfda yangi metodni qo'llab ko'rishi tajriba asosida qo'llaniladi. Reflektiv kuzatuv bosqichida tajribani turli nuqtai-nazardan baholash, kuzatish va tahlil qilish ushbu modelning maqsadi hisoblanadi. Talabaning mavzuni nega tushunolmaganligi savolini tahlil qilishi, o'qituvchining darsda qaysi metodlar samarali bo'lganligini tahlil qilishi ushbu bosqichga misol bo'la oladi. Uchinchi bosqich mavhum konseptualizatsiya ya'ni nazariy xulosalar chiqarish hisoblanadi va bundan maqsad tajribaga asoslangan yangi qoida, g'oya yoki strategiya ishlab chiqishdan iborat. Masalan, talaba bu qoidani misollar bilan tushunsam yaxshi bo'lardi fikrini qo'llab quvvatlasa,



o'qituvchi keyingi safar interfaol metodlardan foydalansam yaxshi bo'lardi fikrini konseptuallashtiradi. Kolb modelining so'nggi bosqichi Faol Eksperiment ya'ni yangi usullarni sinab ko'rish hisoblanadi. Talabalarda endi bu qoidani mustaqil ravishda qo'llab ko'rish ko'nikmasi va o'qituvchilarda esa keyingi darsda guruh ishini ko'paytirish haqidagi o'rganilgan narsalarni amaliyotda qo'llash rivojlantiriladi. [Kolb, 44] Reflektiv pedagogik modellardan samarali foydalanish orqali o'qituvchilar va talabalar nafaqat o'z bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishlari, balki ularning shaxsiy va kasbiy rivojlanishlariga ham yaxshi ta'sir ko'rsatishlari mumkin. Bu modellarni qo'llash orqali ta'lim jarayonining sifatini oshirish va zamonaviy talablarga mos keladigan mutaxassislar tayyorlash mumkin.

1. Brookfield, S. D. (1995). *Becoming a critically reflective teacher*. Jossey-Bass.
2. Dewey, J. (1933). *How we think: A restatement of the relation of reflective thinking to the educative process*. D.C. Heath & Co.
3. Gibbs, G. (1988). *Learning by doing: A guide to teaching and learning methods*. Further Education Unit.
4. Kolb, A. Y., & Kolb, D. A. (2005). Learning styles and learning spaces: Enhancing experiential learning in higher education. *Academy of Management Learning & Education*, 4(2), 193–212.
5. Kolb, D. A. (1984). *Experiential learning: Experience as the source of learning and development*. Prentice-Hall.
6. Moon, J. A. (1999). *Reflection in learning and professional development: Theory and practice*. Kogan Page.
7. Moon, J. A. (2004). *A handbook of reflective and experiential learning: Theory and practice*. RoutledgeFalmer.
8. Schön, D. A. (1983). *The reflective practitioner: How professionals think in action*. Basic Books.
9. Schön, D. A. (1987). *Educating the reflective practitioner: Toward a new design for teaching and learning in the professions*. Jossey-Bass.